da. Ulardan foydalanish, ayniqsa, ilmiy kontekstlarda tez-tez uchrab turadigan faktlar, sanalar, ismlar, tillar va boshqa tushunchalarni yodlashda foydalidir. Empirik tadqiqotlar esa shuni ko'rsatadiki, mnemonika, ayniqsa, takrorlash kabi an'anaviy o'rganish usullari bilan solishtirganda, ma'lumotni saqlash va qayta tiklashni yaxshilashi mumkin. Mnemonik texnikalardan foydalanish o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda sezilarli natijalarga olib keladi. Masalan, yana bir tadqiqotlardan, mnemonik usullardan foydalangan o'quvchilar oddiy usullar bilan o'rganadigan o'quvchilarga nisbatan yangi so'zlarni ancha yaxshi eslab qolgan. Bundan tashqari, mnemonik texnikalardan foydalangan o'quvchilarning yozma nutqi ham ravon va mazmunli bo'lgan. Darhaqiqat, mnemonikalar orqali esda qolgan so'zlar va iboralar nutq tuzilmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mnemonik texnikalar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular so'z boyligini oshirish, fikrni aniq ifodalash, nutq ravonligini yaxshilash, yozma nutqda xatolarni kamaytirish va ijodiy yozishga rag'batlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida mnemonik texnikalardan oqilona foydalanish o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zero, ta'kidlaganimizdek, mnemonik texnikalar xotirani kuchaytirishning eng samarali va qiziqarli usulidir. Ular ma'lumotlarni oson eslab qolishga yordam beradi, o'rganishni osonlashtiradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va diqqatni jamlashga yordam beradi. Ular nafaqat ma'lumotlarni eslab qolishni osonlashtiradi, balki muloqot jarayonini samarali qiladi va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. O'qituvchilar va talabalarga mnemonik texnikalardan foydalanishni o'rganish, ularning nutq ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, mnemonik texnikalar ta'lim jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi va kelajak avlodlarning nutq madaniyatini oshirishda katta rol o'ynaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). "Har bir bitiruvchi kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishi shart". https://www.gazeta.uz/oz/2021/05/06/videoselector/O'zbekiston

(2). Abduraimova Sh., Muydinov S. Mnemonika (yod olish san'ati). Toshkent, "Akademnashr", 2020, 128-bet.

(3). Shohruh-Mirzo Rahmanov va Iskandar Sattibayev. So'z yodlash sirlari, Toshkent. "Istiqlol nuri" nashriyoti, 2025, 124-bet.

(4). Мнемотехника для развития памяти. Интересные и полезные методы для школьников. https://oxbridgeschool.uz/mnemonika-xotirani-rivojlantirish-uchun/?lang=uz

(5). Mnemonika. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mnemonika

(6). "The Mind Map Book: How to Use Radiant Thinking to Maximize Your Brain's Untapped Potential Paperback" – Illustrated, March 1, 1996 by Tony Buzan (Author), Barry Buzan (Author).

(7). "Memory: Surprising New Insights into How We Remember and Why We Forget – Hardcover" Elizabeth F.Loftus Addison-Wesley; First Edition (January 1, 1980).

Rahimova Sarvinoz Sadiq qizi (Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti; sarvinozrahimovaa@gmail.com)

MARKAZIY OSIYO MUTAFFAKKIRLARINING BOSHQARUV MASALALARIDAGI NAZARIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boshqaruv masalalariga oid nazariy qarashlari tahlil qilingan. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi allomalarning boshqaruv tamoyillari, rahbarlik fazilatlari va ijtimoiy adolat haqidagi fikrlari zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari bilan solishtirilib o'rganilgan. Maqolada tarixiy qarashlarning bugungi boshqaruv tizimlariga ta'siri va ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Forobiy, Navoiy, boshqaruv nazariyasi, adolat, rahbarlik, tarixiy meros, Sharq mutafakkirlari.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ НА ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. *В статье анализируются теоретические взгляды мыслителей Центральной Азии на вопросы управления. Рассматриваются идеи Абу Насра Фараби, Ибн Сины, Бахауддина Накшбанди и Алишера Навои о принципах управления, качествах лидера и социальной справедливости. Также раскрывается значение этих идей для современных концепций управления.*

***Ключевые слова**: Фараби, Навои, теория управления, справедливость, лидерство, историческое наследие, мыслители Востока.*

THEORETICAL VIEWS OF CENTRAL ASIAN THINKERS ON MANAGEMENT ISSUES

***Annotation**. This article analyzes the theoretical views of Central Asian thinkers on governance issues. The views of scholars such as Abu Nasr Al-Farabi, Ibn Sina, Bahauddin Naqshband, and Alisher Navoi on governance principles, leadership qualities, and social justice are compared and studied with modern governance concepts. The article reveals the impact and significance of historical views on today's governance systems.*

***Keywords**: Farabi, Navoi, management theory, justice, leadership, historical heritage, Eastern thinkers.*

Kirish. Sharqda qadimdan boshqaruv sohasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Sababi, jamiyat va davlat boshqaruvi qadimdan sharqlik mutafakkirlarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Ko'plab olimlar va ulamolar jamiyat va davlatni boshqarishda adolat va tenglik g'oyalarini ilgari surishgan. Turkiy xalqlarning tarixini yorituvchi qadimgi manbalarda pand-nasihat va o'gitlar aytilgan asarlar ham ko'plab uchraydi. Davlat va jamiyat hayotida rahbarlikning o'rni haqida "Avesto"ning "Vandidod" kitobida Oliy tangri Axuramazda tomonidan yaratilgan 16 ta zaminning ma'muriy-hududiy boshqaruvi misolida ham to'xtalib o'tilgan. Masalan, davlatni boshqargan shaxs "kavi", ya'ni, muhim ijtimoiy-siyosiy va huquqiy masalalarni o'zida birlashtirgan podshoh – asosiy siyosiy, o'z navbatida, ijtimoiy institut ham edi. "Kavi"ning davlat boshqarish huquqining belgilanishida "farr" boshqaruv tamoyili qonuniy asos qilib olingan. Buning mohiyati shuki, davlat boshqarish huquqlari hukmdorning bevosita ilohiy va shaxsiy xususiyatlari amaliy ifodasi sifatida amalga oshirilgan. Markaziy Osiyo hududi qadimdan ilm-fan, falsafa va madaniyat markazi bo'lgan. Bu zamin yetishtirgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlar nafaqat ilm-fan va axloqiy masalalarda, balki davlat boshqaruvi, adolatli jamiyat, rahbar va xalq o'rtasidagi munosabatlar borasida chuqur nazariy qarashlar bildirganlar.

Tadqiqot metodologiyasi qismi. Qadimgi manbalar jumlasiga kiruvchi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asari ham alohida ahamiyatga ega. Alloma o'zining mazkur asarida shaxsni boshqarishga doir qarashlarini aks ettirgan. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni, odamlar o'rtasidagi o'zaro nomaqbul muloqot holati bilimli, donishmand kishilarning aziyat chekishlariga sabab bo'ladi. Zero, hayotda aksariyat holatlarda manman, zo'ravon, xudbin odamlarning omadlari keladi, ular yuqori mansablarni egallab, xalq va yurt manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshiradilar. Bilimli kishilar esa ularni bunday yo'ldan qaytarish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklaridan afsuslanadilar, chorasizliklaridan ranjiydilar. Hukmdorlarning nodon, kaltafahm bo'lishlari tufayli oqil insonlar munosib ravishda hurmat topmaydilar, qadr-qimmatlari toptaladi. Mahmud Koshg'ariy ushbu holat so'yilgan jonliq tanasining yerlarga sudralib xor bo'lganiga o'xshaydi, deydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahliliy qismi. O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti shaxsni boshqarish sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir «Muallimi soniy» («Ikkinchi muallim») deb ataganlar. Sharqning mutafakkir olimlaridan hisoblangan Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida ijtimoiy-falsafiy masalalar bilan birgalikda boshqaruv sohasiga, aynan boshqaruv sohasiga aloqador bo'lgan rahbarlar, ya'ni, hokimlarga ham alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, Forobiyning "Fozil odamlar shahri" risolasida quyida-gi jumlalarni uchratishimiz mumkin:

Shaharda hokimlar va bo'ysunuvchilar bo'lgan taqdirdagina u yerda qonunlashtirish barkamol bo'lishi mumkin. Hokimlar asl oliyjanob oqsoqollar singari ulug'vor yoshda va hayotiy tajribaga ega bo'lishlari kerak. Bo'ysunganlar esa go'daklar, yoshlar va johil odamlardan tashqari qolgan hamma odamlardir. Ishda bunga qanchalik rioya qilinsa, shunchalik to'g'ri bo'ladi. Agar hokimlar tarbiyasiz bo'lsalar, u holda ularning ishlari ham, fuqarolarning ishlari ham inqirozga yuz tutadi. Hokimlarning nodonligi esa xalq uchun eng katta zarardir. Hokimning tarbiyali, boshqaruvning ko'ngildagidek bo'lishi shahar aholisi uchun juda muhim. Bu badanga-ovqat, kemaga dengizchi kerak bo'lgani kabi zaruriy narsadir.

Duch kelgan, har qanday odam shahar-davlatga rahbarlik qilolmaydi. Rahbar bo'lishning avvalgi ikki sharti:

1. Inson tabiatida rahbarlik qilish qobiliyati (ma'naviy va aqliy yetuklik) bo'lishi zarur.
2. Bunday odam yuqori mavqeyi, insoniy fazilatlari, qobiliyatlari bilan xalq orasida hurmat qozongan bo'lishi zarur. Rahbarlik sohasida tajriba orttirish ham muhim.

Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil shahar ahli” asarida ideal jamiyat va uni boshqaruvchi rahbar obrazini falsafiy nuqtayi nazardan yoritgan. Forobiyga ko‘ra, jamiyatning muvaffaqiyati bevosita rahbarning ma’naviy yetukligi va donoligiga bog‘liq. Uningcha, “fozil rahbar”–bu bilimdon, odil, aql-zakovatli va xalq manfaati uchun xizmat qiluvchi shaxs bo‘lishi lozim [1;45-b.].

Forobiy ijtimoiy tuzumlarni tahlil qilib, har bir jamiyatda adolat, ilm, axloq va tartib ustuvor bo‘lishi kerakligini urg‘ulaydi. U rahbarning vazifasini inson salohiyatini to‘liq ochishga xizmat qiladigan boshqaruv tizimini yaratish, ijtimoiy muvozanatni saqlash deb biladi [2;87-b.].

Qomusiy olim Beruniyning fikricha, axloqiylik rahbar kishining eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilar bilan o‘zaro muloqot, ijtimoiy muhit jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. U boshqaruv madaniyatiga doir xislatlarga to‘g‘rilik, odillik, o‘zini vazmin tutish, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi.

Shu bilan birgalikda, Beruniy saxovat va muruvvatni insonning axloqiy kamolotini ko‘rsatuvchi xislatlar deb biladi. Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka yetishga to‘sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg‘onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju qo‘yish va ta’magirlik, g‘azab va johillik boshqaruv jarayoni uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi. Mutafakkir ilgari surgan boshqaruvga doir xislatlardan yana biri adolatdir. U jamiyatda adolat o‘rnatish, uni yovuzliklardan xalos etish uchun dono, adolatli hukmdor bo‘lishi kerak, deydi. Beruniy ichki boshqaruv masalalari, shaxs ehtiyojlari, rahbar imidji masalalariga ham katta e’tibor bergan. Har bir axloqan barkamol inson o‘zining turmush tarzini ham uyg‘un, go‘zal eta oladi. Uyg‘unlik, go‘zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi ozodalik, tarbiyalilik bo‘lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiati, ruhi deydi. Shuning uchun inson o‘z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur, deb ko‘rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go‘zalligi, turmush tarzidagi go‘zallikning uyg‘un bo‘lishini talab etgan. Olimning boshqaruvga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik-psixologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go‘zal bo‘lsagina, haqiqiy kamolotga erishishi mumkin, deydi. U ozodalik va orastalikni oliyjanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur deb ta’kidlaydi. Bunda inson o‘zini boshqara olishga qodir bo‘lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo‘lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo‘lishi zarur, deydi. «Minerologiya» asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: «Inson o‘z ehtiroslariga hukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir».

Ibn Sino ham siyosiy va ijtimoiy masalalarda chuqur fikrlar bildirgan. U boshqaruvni tibbiyot, axloq va falsafa bilan bog‘lab tahlil qiladi. Ibn Sino fikricha, davlatni boshqarish insonga g‘amxo‘rlik qilish, uning jismoniy va ruhiy salomatligini ta’minlashga o‘xshaydi. Shu bois u “siyosiy rahbar shifokorga o‘xshashi lozim, u jamiyatdagi illatlarni aniqlab, davolay bilishi kerak” degan [3;102-b.]. Ibn Sino, shuningdek, rahbarlar orasida bilimdonlik va tajriba asosida tanlov qilinishi kerakligini ta’kidlab, irsiy hokimiyatga e’tiroz bildirgan. Bu fikrlar zamonaviy meritokratiya g‘oyalariga yaqinlashadi [4;64-b.].

Bahouddin Naqshband boshqaruvni xizmat deb bilgan. Uning “dil ba yor-u, dast ba kor” shiori rahbarning xalq bilan chin dildan bog‘langan holda, amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishi zarurligini anglatadi. U nafaqat diniy, balki ma’naviy-ijtimoiy rahbar sifatida boshqaruvni odob-axloq, tavoze va jamoatchilikka xizmat qilish tamoyillari asosida tushuntirgan [5;28-b.]. Naqshbandiylik tariqatida rahbarlik – bu yuqori maqom emas, balki katta mas’uliyat deb talqin qilinadi.

Alisher Navoiy o‘zining asarlarida adolat tushunchasini boshqaruvning markaziga qo‘yadi. Xususan, “Mahbub ul-qulub” va “Siyosatnoma”ga o‘xshash asarlarida u rahbar xalqni ezgulik sari yetaklashi, adolatli bo‘lishi, ochko‘zlik va zolimlikdan yiroq turishi kerakligini qayta-qayta ta’kidlaydi [6;93-b].. Navoiy boshqaruvdagi kamchiliklarni ko‘rsatishdan tortinmagan. U korrupsiya, mansabparastlik, adolatsizlik jamiyat halokatining sababi ekanini yozgan va rahbarning doimiy o‘z ustida ishlashi, xalq bilan bog‘lanib yashashi lozimligini ilgari surgan [7;47-b.].

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi kabi xazina kitoblar orasida Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asari personalni boshqarishga doir noyob manba sanaladi. Saljuqiy shohlarga o‘ttiz yil halol vazirlik qilib, o‘z nomini so‘nmas shon-shuhratga chulg‘agan Nizomulmulk markazlashgan kuchli davlat uchun kurash olib borish bilan birga, bu boradagi o‘z kuzatuvlarini jamlab, umumlashtirgan holda, ko‘plab amir-u umarolar, davlat arboblari, siyosatchilar uchun zarur qo‘llanma xizmatini o‘tab kelgan ajoyib kitob yaratdi. Unda davlatni boshqarishdagi eng mayda masalalardan tortib, g‘oyat yirik va muhim mummolargacha hammasini o‘zi yashab turgan davrga qadar to‘plangan siyosiy tajribadan kelib chiqqan holda atroflicha yoritib berdi.

Xulosa. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boshqaruv masalalaridagi nazariy qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar o‘z davrida boshqaruvning ma’naviy-axloqiy, ilmiy va ijtimoiy asoslarini chuqur o‘rganib, ilg‘or g‘oyalarni ilgari surganlar. Ularning qarashlarida rahbar – bu nafaqat buyruq beruvchi, balki xalq xizmatida bo‘ladigan, adolatli, bilimdon, mas’uliyatli va xalq manfaati uchun harakat qiladigan shaxs sifatida talqin etiladi. Bu yondashuvlar zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari, jumladan, demokratik boshqaruv, xizmatkor liderlik, axloqiy liderlik va strategik menejment tamoyillariga hamohangdir. Ushbu tarixiy fikrlar nafaqat ilmiy-nazariy meros sifatida, balki hozirgi rahbarlar uchun amaliy qo‘llanma vazifasini ham bajara oladi. Ular orqali boshqaruvga doir milliy modelni shakllantirish, ma’naviy asoslangan boshqaruv tizimini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Shunday ekan, bu qarashlarni chuqur o‘rganish, targ‘ib qilish va ta’lim tizimida keng qo‘llash hozirgi zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Forobiy, A.N. Fozil shahar ahli haqida. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1993, 240-bet.
(2). Muhammadiyev, A. Sharq mutafakkirlari ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Toshkent, “Fan”, 2005, 180-bet.
(3). Ibn Sino, A.A. Kitob ush-shifo (Siyosat ilmi bo‘limi). Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2004, 156-bet.
(4). Salohiddinov, A. Ibn Sino merosi va hozirgi davr. Buxoro, “Ilm ziyo”, 2018, 128-bet.
(5). Komilov, N. Bahouddin Naqshband. Ma’naviyat va rahbarlik. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2011, 112-bet.
(6). Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1999, 312-bet
(7). Rasulov, M. Navoiy siyosiy-falsafiy qarashlari. Samarqand, “Zarafshon”, 2020, 134-bet.

Xidirova Dildora Zayniddinovna (Qarshi davlat Texnika universiteti dotsenti, PhD)

GNOSEOLOGIK YONDASHUV TA’LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. *Bugungi kunda insoniyat hayotida zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlay oladigan barkamol, ma’naviy yetuk shaxslarni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning gnoseologik-kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *pedagoglar, gnoseologiya, kompetentlik, kadr, zamonaviy, kasbiy, bilim, ta’lim, tarbiya.*

Хидирова Дилдора Зайниддиновна (доцент, Каршинский государственный технический университета, PhD)

ЭПИСТЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация. *Сегодня главная цель современного образования в жизни человека – подготовить для общества и государства всесторонне развитую, духовно зрелую личность, социально адаптированную к обществу и труду, умеющую работать над собой. Поэтому уровень эпистемологической компетентности педагогов важен в воспитании всесторонне развитой личности.*

Ключевые слова: *педагоги, эпистемология, компетентность, кадры, современный, профессиональный, знания, образование, воспитание.*

Khidirova Dildora Zayniddinovna (Associate Professor Karshi state technical university, PhD)

GNISEOLOGICAL APPROACH AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. *Today, the main goal of modern education in human life is to prepare well-rounded, spiritually mature individuals for society and the state, who are socially adaptable to society and labor activity, and who can work on themselves. Therefore, the level of epistemological competence of educators is of great importance in the upbringing of a well-rounded individual.*

Key words: *pedagogues, epistemology, competence, personnel, modern, professional, knowledge, education, upbringing.*

Kirish. Bugungi kunda insoniyat hayotida zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlay oladigan barkamol, ma’naviy yetuk shaxslarni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning gnoseologik-kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega